

## O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

<sup>1</sup>Komilova Aziza Sunatullaevna-O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

<sup>2</sup>Husenova Mohinabonu Qudrat qizi,

<sup>3</sup>Xidirova Mohichehra Shuhrat qizi.

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabalari

[aziza.komilova2022@gmail.com](mailto:aziza.komilova2022@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘smir yoshidagi o‘quvchilarni kasb hunarga yo‘naltirishning o‘ziga xos asosiy xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar;** o‘smir, diqqat, tafakur, individual xususiyatlar, yetachilik, psixofiziologik o‘zgarishlar, krizis davri.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan prezidentimizning o‘quvchi yoshlarni kasb hunarga tayyorlash to‘g‘risidagi qarorlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu ishlardan ko‘rinib turiptiki yoshlarni jamiyatda o‘z o‘rnilarini egallashlari uchun va mamlakatimizga kerakli yetuk kadir bo‘lib yetishib chiqishlari uchun o‘smirlikdanoq ularni kasb hunarga yo‘naltirishga alohida jiddiy e‘tibor qaratishimiz lozim. Hozirgi kunda o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy, siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka egadir ularda jinsiy yetilish ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sinh oldinroq namoyon bo‘lmoqda. “Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas” aynan shu tarif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini malum darajada o‘rtoqlari va o‘qtuvchilarga ko‘rsatishga intiladilar. Aynan mana shu davrda biz ularni fikrlari va xatti

harakatlaridan kelib chiqan holda ichki mativlari qiziqishlari qobiliyatlari irodaviy sifatlarini aniqlab olishimiz mumkin.

O‘smirlik davri “o‘tish davri”, “krizis davri” kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan karakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o‘smirlarning hatti harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S Vigotski bunday holatni “psixik rivojlanishdagi krizis” dep nomlagan. Kattalar o‘smirlarning foydali jamoa ishlarida muvaffaqiyatga erishishlarida yordam berishlari va bu bilan ularning o‘z qadr – qimmatlarini namoyon qilishlariga imkon berishlari lozim. Aks holda ular boshqalarning oldida o‘zlarini yuqori qo‘yishlari, bepisandlik bilan munosabatga kirishishlari mumkin. Buni ular o‘zlarining qadr – qimmatlari tan olinmasligini yoki kamsitilganligiga qarshi chiqib salbiy ishlar va xatti harakatlar orqali amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi. Hozirgi kunda yoshlar ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda va turli xil ehtiyojlarga ega. Natijada, o‘smirlik, keng ko‘lamli jismoniy, ijtimoiy va kognitiv o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan vaqt juda qiyin davr bo‘lishi mumkin. Ushbu o‘smirlik o‘zgarishlariga qo‘shimcha ravishda, salbiy oilaviy munosabat, tengdoshlar bilan muammolari, xavfli moddalarga kirish va yuqori xavfli xatti-harakatlar kabi boshqa omillar ko‘pincha ularga boshdan kechirayotgan qiyinchiliklarga yordam beradigandek tuyuladi. Shunday ekan o‘smirlarning kasbga yo‘naltirish hamda vaqtini mazmunli o‘tqazishga bo‘lgan harakatlar talim jarayonida faoliyat olib borayotgan o‘qtuvchilar hamda ota – onalarning zimmasiga yuqori masulyat qo‘yadi. Maktab ta’limi o‘smirlarning bilish jarayonlarini rivojlanish yo‘nalishini sifat jihatidan o‘zgarishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘qish o‘smirlar hayotida katta o‘rinni egallaydi. Ular uchun mashg‘ulotlarni bajarishda mustaqil faoliyat olib borishni yoqtirishadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o‘smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari, qiziqishlarning ortishi, o‘qtuvchining o‘quv materialaridan foydalanishi va tushuntira olish mahoratiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. O‘qish faoliyati asosida o‘smirlarning o‘z - o‘zini anglash darajasi

kengayadi, boshqa odamlar atrof muhit haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajakdagi kasbi va idealari bilan bog'liq bo'lgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o'z tasirini ko'rsatadi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini oshiradi. Lekin aksariyat yoshlar aynan anashunday murakkab vaziyatda tushkunlikga tushubqolishlari va ushbu vaziyatlarda o'zlarini qo'lga olishlari murakablashadi. Ularga oiladan yoki maktabning o'qituvchilari tomonidan berilayotgan tanqidiy fikrlar, nasihatlar va nazoratli hatti harakatlar o'smir uchun o'z shaxsiga bo'layotgan hujumdek tuyiladi va ulardan uzoqlashadi, yoki qarshi chiqib o'z fikrini himoya qilishga harakat qiladi. Bunday holat esa o'zaro munosabatlarning salbiylashishiga sabab bo'ladi.

Albatta bunday jarayonlarda o'smirning psixologik hamda fiziologik holatlarini hissobga olgan holda yondashib undagi kamchilik va o'zgarishlarni to'g'ri qabul qilish darkor, ularning mativlarini aniqlagan holda yunaltirilishi lozim. Bu esa o'smir bilan muloqotni yaxshilanishiga sabab bo'ladi va o'zaro ishonch mustahkamlanadi. Bunday vaziyatni o'smirni kasbga yunaltirish uchun dastlabki qadam sifatida baholash mumkin. Keying bosqichda o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish uchun uni har bir jarayonda qo'llab qo'vatlash lozim, kamchiliklarini va hatolarini yengib o'ta olishini takidlab turilishi kerak. Keyingi bosqichga kelib o'smirlarning yutuqlarini doimo kuzatib borilishi yanada ruhlantirish undagi kuchni energiyani to'g'ri yunaltirish o'smirdagi liderlik ya'ni yetakchilik qobiliyatlarini shakillantirilishiga xizmat qiladi, shundagina jamiyatimiz uchun so'g'lom, ma'naviyatli va yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz bu esa xalqimiz ichida jinoyatchilik va huquq buzarlilikni hamda ishsizlikni oldini olish uchun xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti Toshkent - 2018
2. Z.Nishonova D.Abdulayeva G.Baykunosova.O‘smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi.
3. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya Toshkent 2009
4. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi. Chirchiq, 2020.
5. Robin Sharma. Muvaffaqiyatning 200 siri. Toshkent, 2017
6. Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression. The benefits and harms of cyberspace on the human psyche. *Eurasian Scientific Herald*, 5, 69-73.
7. Тошпулатова,Н.Х., & Комилова,А.С. (2016). Психолого-педагогическая работа по организации самовоспитания подростков. *Молодой ученый*, (10), 1306-1308.
8. Комилова,А.(2021). Роль родителей в подготовке молодежи к семейной жизни. *Общество и инновации*, 2(10/S), 437-441.
9. Жуманова,Н.Ш., Тошпулатова,Н.Х., & Комилова,А.С. (2016). Развитие инновационных систем в образовании. *Молодой ученый*, (4), 777-778.
10. Алимкулов, С.О.У., Мелибоев, А.Р., Комилова,А.С., & Туракулов, Л. Т. (2016). Решение разных проблем в образовании с помощью 3D-технологии. *Проблемы педагогики*, (12 (23)), 12-13.
11. Sunatullaevna,K.A.(2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.
12. Sunatullaevna,K.A., & Quدراتовна,N.F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.

13. Eshmurodov, O. (2023). OILAVIY MUNOSABATLAR BARQARORLASHSHUVIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).  
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8238>
14. Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.
15. O.E.Eshmuradov - [Oilaning ma'naviy-axloqiy xususiyatlari va oila mustahkamligini ta'minlash imkoniyatlari](#) Academic research in educational sciences, 2021 ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
16. O.E.Eshmuradov [Oilaviy munosabatlarda shaxs moslashuvchanligi xususiyatining oila mustahkamligiga ta'siri](#): doi: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya ..., 2021
17. Eshmurodov, O. (2022). ҚАЙНОНА ВА КЕЛИН ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИГА ТАЪСИРИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7431>
18. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
19. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>
20. Axmedov, V. (2022). МУҲАББАТ ҲИСЛАРИ БОСҚИЧЛАРИНИНГ ГЕНДР ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7457>

21. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от

<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>

22. Alimardanova, R. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ЁШ КЕЛИН-КУЁВ ШАХСИНИНГ ХАРАКТЕРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ ХУЛҚ-АТВОРНИНГ ЭМПИРИК КЎРСАТКИЧЛАРИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от

<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7458>